

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **INFORMATIKA O'QITISH METODIKASI**

**Web texnologiyalar va ularni  
tatbiq etish masalalari**

## **MODULI BO'YICHA O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT-2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** p.f.f.d., dots. v.b. N.S.Xaytullayeva - Nizomiy nomidagi TDPU

**Taqrizchilar:** dots. M.Fayziyeva - Nizomiy nomli TDPU “Informatika” kafedrasи

**Xorijiy ekspert:** p.f.d., professor N.I.Pak–V.P.Astafbeva nomidagi Krasnoyarsk davlat pedagogika universiteti professori.

**O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagи 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	5
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	11
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	27
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....	78
V. KEYSALAR BANKI .....	117
VI. GLOSSARIY .....	123
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	127

I BO‘LIM

ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan "Ta'limga to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdag'i "Oliy ta'limga muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi "Oliy ta'limga muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish boyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797 sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'limga muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'limga sohasi boyicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qoyiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni O'zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida oliy ta'limga vazifalari, ilg'or ta'limga texnologiyalarini va pedagogik mahorati, ta'limga jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlaridan foydalanish va masofaviy o'qitishning zamonaviy shakllarini qo'llash boyicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qoyiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**"Web-texnologiyalar va ularni tatbiq etish masalalari" modulining maqsadi:** Web-texnologiyalar va ularning ta'limga jarayoniga tatbiqi boyicha oliy ta'limga muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini oshirish.

#### Modulning vazifalari:

oliy ta'limga muassasalari pedagog kadrlarida Web-texnologiyalar va ularning

ta’lim jarayoniga tatbiqi haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko’nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

### **Modul boyicha tinglovchilarning bilimi, ko’nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qoyiladigan talablar**

“Web-texnologiyalar va ularni tatbiq etish masalalari” modulini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- Web-texnologiyalar, blog texnologiyalar, bulutli texnologiyalar kabi tushunchalarni;
- Web-texnologiyalarning rivojlanish tarixini;
- bulutli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlarini;
- Blog texnologiyasini, pedagogika sohasiga oid ta’limiy bloglarni;
- Web-texnologiyalar va ularni tatbiq etish masalalarini ***bilishi*** kerak.

#### **Tinglovchi:**

- tarmoq ta’lim resurslari va internet-zakladkalarini saqlashda Web 2.0/3.0 texnologiyalaridan foydalanish;
- bulutli texnologiyalardan foydalanib hamkorlikda tarmoq ta’lim resurslarini yaratish;
- pedagogik faoliyatda bloglardan foydalanish ***ko’nikmalariga*** ega bo’lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- bulutli texnologiyalardan foydalanib hamkorlikda tarmoq ta’lim resurslarini yaratish;
- Web-texnologiyalardan foydalanib informatikaga doir interaktiv multimedia vositalari, intellektual bilimlar xaritasi, test topshiriqlari hamda didaktik materiallar yaratish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish;
- pedagogika sohasiga oid shaxsiy ta’limiy bloglarni yarata olish ***kompetensiyalariga*** ega bo’lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o’tkazish boyicha tavsiyalar**

“Web-texnologiyalar va ularni tatbiq etish masalalari” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezентatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;



- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlardan, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruuhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish va boshqa interaktiv ta'limgan usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Web-texnologiyalar va ularni tatbiq etish masalalari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Ta'limgan jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishning nazariy masalalari”, “Informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” va “Pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydoni boyicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limgagini o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar Web-texnologiyalar va ularning imkoniyatlaridan ta'limgan jarayonida foydalanishga o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### **Modul boyicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Auditoriya o'quv yuklamasi</b>		
		<b>Jami</b>	<b>Jumladan</b>	<b>Nazariy</b>
1.	Web-texnologiyalar, ularning rivojlanish tarixi. Web 2.0/3.0 texnologiyalarining Informatika ta'limgida tutgan o'rni.	4	2	
2.	Bulutli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari.	6	4	4
3.	Bulutli texnologiyalardan foydalanib hamkorlikda tarmoq ta'limgan resurslarini yaratish.	4		4
4.	Web-texnologiyalardan foydalanib informatikaga doir interaktiv multimedia vositalari, intellektual bilimlar xaritasi, test topshiriqlari hamda didaktik materiallar yaratish va ularidan ta'limgan jarayonida foydalanish.	4		4
5.	Pedagogik faoliyatda bloglar.	8	4	4
	<b>Jami:</b>	<b>26</b>	<b>10</b>	<b>16</b>

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-ma'ruza. Web-texnologiyalar, ularning rivojlanish tarixi. Web 2.0/3.0 texnologiyalarining Informatika ta'linda tutgan o'rni. (2 soat)**

Web-texnologiyalar, ularning rivojlanish tarixi. Web-texnologiyalar, Web 2.0 va Web 3.0 texnologiyalarning yaratilishi. Web 2.0/3.0 texnologiyalarining Informatika ta'linda tutgan o'rni.

### **2-ma'ruza. Bulutli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari. (4 soat)**

Bulutli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari. Tarmoq ta'lim resurslari va internet-zakladkalarini saqlashda Web 2.0/3.0 texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.

### **3-ma'ruza. Pedagogik faoliyatda bloglar. (4 soat)**

Pedagogik faoliyatda bloglar. Blog. Blog yaratish uchun manbalar. Pedagogika sohasiga oid bloglar. Foydali ta'limiy bloglar. Pedagog bloglari. Guruh blogi va uning tuzilishi. Ta'limiy bloglarga qoyiladigan talablar. Blog xavfsizligi.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-amaliy mashg'ulot. Bulutli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari (4 soat)**

Bulutli texnologiyalar, ulardan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tish. Bulutli texnologiyalarga yordamida yaratiladigan resurslarni o'rganish. Bulutli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari bilan tanishish. Tarmoq ta'lim resurslari va internet-zakladkalarini saqlashda Web 2.0/3.0 texnologiyalaridan foydalanish.

### **2-amaliy mashg'ulot. Bulutli texnologiyalardan foydalanib hamkorlikda tarmoq ta'lim resurslarini yaratish (4 soat)**

Bulutli texnologiyalar, ulardan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tish. Bulutli texnologiyalarga yordamida yaratiladigan resurslarni o'rganish. Bulutli texnologiyalarning didaktik

### **3-amaliy mashg'ulot. Web-texnologiyalardan foydalanib informatikaga doir interaktiv multimedia vositalari, intellektual bilimlar xaritasi, test topshiriqlari hamda didaktik materiallar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish. (4 soat)**

Bulutli texnologiyalar, ulardan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tish. Bulutli

texnologiyalarga yordamida yaratiladigan resurslarni o'rganish Bulutli texnologiyalarning didaktik

#### **4-amaliy mashg'ulot. Pedagogik faoliyatda bloglar. (4 soat)**

Pedagog bloglari. Guruh blogi va uning tuzilishi. Ta'limiylar qoyiladigan talablar. Blog xavfsizligi.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul boyicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha yechimlari boyicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi boyicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

# II BO‘LIM

MODULNI O‘QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN  
INTERFAOL TA’LIM  
METODLARI




## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### “KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI

Bu metod ta'lism olovchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lism olovchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lism beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lism beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lism olovchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



#### “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'naliishi aniqlanadi. Mavzu boyicha bir-biriga bog'liq bo'lган masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqt ni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalg etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.


**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI**

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatica ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol boyicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana boylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan



### Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu boyicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qoyadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi boyicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qoyadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana boylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

#### "Davra suhbat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qoyiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu boyicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qoyadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi boyicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qoyadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli boylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu boyicha o’zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu boyicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o’zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni obektiv baholashi mumkin.

### **“ISHBOP OYIN” METODI**

“Ishbop oyin” metodi - berilgan topshiriqlarga ko’ra yoki oyin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

Oyin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan oyin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko’ra ishtirokchilar o’z faoliyatlarini o’zgartirish imkoniyatiga ham ega bo’ladi. Ishbop oyinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo’ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iy belgilangan va oyin davomida o’zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o’z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop oyinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Quyida “Ishbop oyin” metodining tuzilmasi keltirilgan.

#### **O‘yin shartlari va baholash mezonlari bilan tanishtirish**

#### **Vazifalarni taqsimlash**

#### **Vazifalar bo‘yicha ishtirokchilar qaror qabul qiladilar**

#### **O‘yinni amalga oshirish**

#### **Muhokama qilish**

#### **Baholash**

#### **“Ishbop oyin” metodining tuzilmasi**

#### **“Ishbop oyin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo’riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta’lim oluvchilarni oyinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta’lim oluvchilar o’z rollari boyicha tayyorgarlik ko’radilar.
5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan oyinni amalga oshiradilar.

Ta’lim beruvchi oyin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

6. Oyin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytildi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o’z vazifasini to’g’ri bajarishi, berilgan vaziyatda o’zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko’rsata olishi kerak.

### **“ROLLI OYIN” METODI**

“Rolli oyin” metodi - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko’rsatib beruvchi metoddir.

Rolli oyinlarning ishbop oyinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmaslididir. Shu bilan birga “Rolli oyin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop oyin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o’zları hal etadilar.

Rolli oyinda ham ishbop oyin kabi muammoni yechish boyicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo’lga qoyilgan. Rolli oyinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli oyin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo’lishi lozim. Chunki rollarni oynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli oyinlar o’quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli oyin” metodining tuzilmasi keltirilgan.

**Ssenariy ishlab chiqiladi**

**O’yinning maqsadi va vazifalari tushuntiriladi**

**Rollar taqsimlanadi**

**Rollar ijro etiladi**

**Yakuniy xulosaga kelinadi**



### “Rolli oyin” metodining tuzilmasi

#### “Rolli oyin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu boyicha oyinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli oyin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. Oyinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. Oyinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o’z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. Oyin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo’lgan ta’lim oluvchilar o’z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va oyinga xulosa qilinadi.

### “BAHS-MUNOZARA” METODI

“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu boyicha ta’lim oluvchilar bilan o’zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o’tkaziladigan o’qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo’llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o’zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo’ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o’tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o’ng qo’l” qoidasi (qo’lini ko’tarib, ruhsat olgandan so’ng so’zlash)ga riox qilish;
- ✓ fikr-g’oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g’oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o’zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o’tkazish tuzilmasi berilgan.

Muammoli savol tashlanadi

Turli fikrlar tinglanadi

Fikr-g’oyalar to‘planadi

Tahlil qilinadi

Aniq va maqbul yechimni topish



### Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

#### “Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo boyicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g’oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o’z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g’oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qoyilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

### “MUAMMOLI VAZIYAT” METODI

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish boyicha ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qoyilgan muammoning yechimini topishga qodir bo’lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so’nishiga, o’zlariga bo’lgan ishonchlarining yo’qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo’llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o’rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.

Muammoli vaziyat tavsifini keltirish

Guruhlarga bo‘lish

Guruhlarning muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlashi

Guruhlarning muammoli vaziyatning oqibatlari to‘g‘risida fikr yuritishi

Guruhlarning muammoli vaziyatning yechimini ishlab chiqishi

To‘g‘ri yechimlarni tanlash



### “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

#### “Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu boyicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o’rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to’g’risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so’ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo’llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi boyicha taqdimot qiladilar va o’z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so’ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo’llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

### “LOYIHA” METODI

“Loyiha” metodi - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu boyicha axborot yig’ish, tadqiqot o’tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo’lishi mumkin, lekin har bir loyiha o’quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha o’rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo’lishi kerak. Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



### **“Loyiha” metodining bosqichlari**

#### **“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi boyicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejorashtirishlari lozim.

3. Kichik guruuhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish boyicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar boyicha erishiladigan natijalarini muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasini asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o’zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruuhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi.

### **«BLUM KUBIGI» METODI**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o’zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo’llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

1. Ushbu metodni ko’llash uchun, oddiy kub kerak bo’ladi. Kubning har bir tomonida koyidagi so’zlar yoziladi:

<b>TUSHINTIRIB BERING</b> (muammoni har tomonlama qarash savoli)	<b>TAKLIF BERING</b> (amaliyot bilan bog'liq savol)	<b>NIMA UCHUN</b> (sabab-oqibatni aniqlashtiruvchi savol)	<b>MISOL KELTIRING</b> (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)
<b>FIKR BERING</b> (tahlil kilish va baxolash savoli)			

- O'qituvchi mavzuni belgilab beradi.
- O'qituvchi kubikni stolga tashlaydi. Qaysi so'z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

### “KWHL” METODI

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu boyicha quyidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

**Izoh. KWHL:**

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo'ladi?*

*Learn - nimani o'rghanib oldim?.*

### “KWHL” metodi

<b>1. Nimalarni bilaman:</b> -	<b>2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</b> -
-----------------------------------	----------------------------------------------------------------------------

**3. Qanday qilib bilib va topib olaman:**

-

**4. Nimalarni bilib oldim:**

-

### **“W1H” METODI**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu boyicha qoyidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

<b>What?</b>	<b>Nima?</b> <b>(ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)</b>	
<b>Where?</b>	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mukin)?	
<b>What kind?</b>	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
<b>When?</b>	Qachon? (ishlatiladi)	
<b>Why?</b>	Nima uchun? (ishlatiladi)	
<b>How?</b>	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

### **“SWOT-TAHLIL” METODI.**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• xavflar

### **“VEYER” METODI**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko’ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o’rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari boyicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari boyicha o’rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o’quvchilarning mustaqil g’oyalari, fikrlarini yozma va og’zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veyer” metodidan ma’ruza mashg’ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg’ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**



trener-o’qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga vozma bavon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlар o‘z taqdimotlarini o’tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa:

### “KEYS-STADI” METODI

«Keys-stadi» - inglizcha so’z bo’lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stady» – o’rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o’qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o’rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti tanimshirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: aniqlashtirish va topshirig’ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig’ining yechimini izlash, hal etish yo’llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo’llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to’siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo’llash imkoniyatlarini asoslash;

- ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;
- ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

## “ASSESSMENT” METODI

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo’nalishlar (test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) boyicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg’ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to’g’ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Test



Muammoli vaziyat



Tushuncha tahlili  
(simptom)



Amaliy vazifa

## “INSERT” METODI

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lif oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lif oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:



Belgilar	Matn
“V” – tanish ma'lumot.	
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.	
“-” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lif oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

# III BO‘LIM

NAZARIY  
MATERIALLAR



### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-MA’RUZA. WEB-TEXNOLOGIYALAR, ULARNING RIVOJLANISH TARIXI. WEB 2.0/3.0 TEXNOLOGIYALARINING INFORMATIKA TA’LIMIDA TUTGAN O’RNI (2 SOAT)

Reja:

- 1.1. Web-texnologiyalar, ularning rivojlanish tarixi.
- 1.2. Web 2.0/3.0 texnologiyalarining bo’lajak informatika o’qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida tutgan o’rni

##### 1. Web-texnologiyalar, ularning rivojlanish tarixi

O’zbekiston jahon hamjamiyatidan munosib o’rin egallar ekan, mustaqillikning ilk yillardanoq jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to’liqroq qondirish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo’lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish aloqa va axborot-kommunikatsiya sohasini rivojlantirishni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab oldi.

Ana shulardan biri internet tarmog’iga ulanish va nafaqat mamlakat, balki jahon miqyosida tezkor axborot almashinuviga erishish edi. Shu maqsadda **1991** yili faqatgina elektron pochta uchun birinchi UUCP ma’lumotlarni uzatish tizimiga kirish imkoniyati paydo bo’ldi<sup>1</sup>.

Ma’lumki, **UUCP** (*UNIX to UNIX Copy Protocol*) UNIX tizimlari orasida ma’lumotlardan nusxa ko’chirish protokoli. Fayllardan nusxa ko’chirish va pochta xabarlarini uzatish uchun hozirgi paytda ishlatilmaydigan protokol<sup>2</sup>.

Analog modemlar orqali foydalanuvchilar shaharlararo telefon tarmog’i orqali boshqa foydalanuvchilar bilan ulanish imkoniyatiga ega edilar. Ma’lumotlar uzatish tezligi soniyasiga 1200-2400 bit bo’lib, ko’pchilik uning borligini bilmas, bilganlar ham faqatgina ish boyicha rasmiy yozishmalar uchun foydalanishardi. **1992-1995 yillarga** kelib, UUCPning ilk lokal provayderlari ish boshlaydi. Ular taklif etayotgan tezlik soniyasiga 9600-14400 bit bo’lib, o’sha yillari BCC (Biznes Aloqalar Markazi), CCC va PERDCA (Silk.org) lar foydalanuchilarga xizmat ko’rsatishadi.

FidoNet matnli xabarlarni uzatuvchi global tarmoqning yaratilishi natijasida birinchi Relcom elektron pochtasi ish boshlaydi. Internetga analogli modellarsiz

<sup>1</sup> [http://nargis.uz/article\\_view.php?id=330](http://nargis.uz/article_view.php?id=330) Наргис Қосимова, филология фанлари номзоди Ўзбекистонда интернетнинг ривожланиш тенденциялари

<sup>2</sup> Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати, БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, Тошкент, 2010 й., 446-бет

aloqa o’rnatilib, uning tezligi soniyaga 9600-14400 bitni tashkil etadi. **1995 yilning 29 aprel** kuni «UZ» domeni ishga tushadi. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankida banklararo ma’lumotlar uzatish tarmog’i o’z faoliyatini boshlaydi.

**1996 yili** O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida BMT moliyaviy ko’magida “O’zbekistonda internetni rivojlantirish” loyihasi ishga tushib, UzNet, tellekommunikatsiya bozorida esa UzPAK kompaniyasi o’z faoliyatlarini amalgalashira boshlaydi<sup>3</sup>.

**1997-1999 yillarda** O’zbekistonda ilmiy-ma’rifiy tarmoq UzSciNet tashkil etilib, yangi provayderlar ish boshlaydi. Ajratilgan tarmoqlardagi texnologiyalar analogdan raqamliga o’tadi. Naytov va UzNet raqamli modemlarga faqatgina yuridik shaxslarni ularshadi, jismoniy shaxslar mazkur xizmatdan foydalanish huquqiga ega bo’lmaydilar. Sarkor Telecom simsiz Radio Ethernet tarmoq texnologiyasini joriy etadi. Trans-Osiyo-Yevropaning tolali-optik ma’lumotlarni uzatish tarmog’i (TAYE) ekspluatatsiyaga kiritiladi.

**1999 yili** O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 52-sonli qaroriga muvofiq O’zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan beriladigan litsenziya asosida ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarini rivojlantirish va ekspluatatsiya qilish korxonasi «UzPAK» orqaligina xalqaro tarmoqlarga chiqish imkonini beriladi. UzNet tarmog’i UZPAK tassarrufiga o’tadi. Barcha provayderlarga o’z tarmoqlarini UZPAK bilan birlashtirish tavsiya etiladi.

**1999-2000 yillarda** O’zbekiston Respublikasida BMTning internetni rivojlantirish boyicha yangi loyihasi Fanlar Akademiyasi qoshida ish boshlaydi. Unga ko’ra, Cisco akademik internet tarmog’i tashkil etiladi. Internet bozoriga o’zlarining mustaqil sun’iy yo’ldosh orqali ulanadigan kanallari bilan ko’plab provayderlar chiqishadi.

**2001-2002 yillar.** Internetning tashqi o’tkazish kanali 8,5 s/Mbitdan 18 s/Mbitni tashkil etadi. Sarkor Telekom provayderi TAYE orqali birinchi bo’lib China Telecomga ulanadi. Shu munosabat bilan DialUp xizmatlari uchun narxlar keskin arzonlashadi. «Naytov Internet» internet provayderi Buzton kompaniyasiga qo’shilib ketadi.

**2003-2005 yillar.** Internetga ulanish tezligi 32 s/Mbitdan 143,1 s/Mbitgacha o’sadi. Provayderlar viloyatlarga internetga ulanish xizmatlarini yo’lga qoyishadi. DialUp orqali ulanish uchun qo’shimcha ravishda oylik abonent to’lovlari joriy etiladi. Provayderlar foydalanuvchilarga Callback xizmatini taklif eta boshlaydilar. Respublika uyali aloqa bozoriga Rossiyaning yirik kompaniyalari – Vimpelkom (Bilayn), MTS, Telia Sonera kirib keladi. IP telefoniyaga bozorida Platinum connect,

<sup>3</sup> [www.undp.uz](http://www.undp.uz) Анализ состояния и перспектив развития интернет в Республике Узбекистан. Информационно-аналитический отчет. [УзАСИ](#), ПРООН.2009 г.



2Oxygen, Buzton kabi kompaniyalar faoliyatlarini yo'lga qoyadilar. Ilk marotaba O'zbekiston Respublikasining hukumat portali [www.gov.uz](http://www.gov.uz) ishga tushdi.

**2006-2008 yillar.** Tashqi kanalning o'tkazuvchanlik imkoniyati 1125 s/Mbitga yetdi. Elektron raqamli imzoni ro'yxatdan o'tkazish Markazi ochildi. Kompaniyalar internetga simsiz ulanish uchun eng so'nggi texnologiyalar GPRS, 3G, Wi-MAX xizmatlarini taklif etishdi. Internet foydalanuvchilarning soni 2 milliondan, uyali aloqa foydalanuvchilarining soni esa 10 milliondan oshdi. UZ milliy domenida ro'yxatdan o'tkazish uchun akkreditatsiyadan o'tgan 6 ta kompaniyalar soniga Simus kompaniyasi ham qo'shildi. 2008 yili O'zbekistonga EVO savdo belgisi ostida faoliyat yuritayotgan Super iMax kompaniyasining kirib kelishi bilan birinchi uyali internet paydo bo'ldi. U foydalanuvchilarga WiMAX standartli 802.16d va 802.16e (2.3 GGs diapazonda ishlovchi) xizmatni taklif etdi.

**2010-2014 yillar.** Internet tarmog'iga yangi texnologiyalar asosida ulanish amalga oshirila boshlandi. Bular: xDSL; Wi-Fi; WiMAXdir. Shu bilan birgalikda xalqaro kommunikatsion markazlarning hajmi 2 barobarga oshdi, xalqaro paketli kommunikatsiyaning o'tkazish imkoniyati 4 barobarga oshib, xalqaro internet tarmog'iga ulanish tezligi soniyasiga 40 Gbitga tenglashdi<sup>4</sup>.

**2016-yil.** Toshkentda o'tkazilgan ICTSUMMIT-2016 axborot-kommunikatsiya texnologiyalari SAMMITida so'zga chiqqan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi mutaxassislari xabar berishicha, 2016 yil 2-yarmida O'zbekistonda internet foydalanuvchilari 13 milliondan oshdi.

WWW ilovasi yaratilgandan so'ng 1990- yillar boshlarida tashkil etilgan edi. 2005-yilda foydalanuvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratayotgan Web 2.0 yoki Cloud Computing deb ataluvchi Internetning yangi avlodni paydo bo'la boshladi.


2005 yilning 30 sentabrida "O'Reilly Media" kompaniyasi prezidenti Tim O'Reilly tomonidan chop etilgan "Web 2.0 nima: dasturiy ta'minotning keyingi avlodni uchun sxema, dizayn va biznes-modellar" nomli maqolada "Web 2.0" yangi atamasi kirib keldi. 2005 yil oktabr oyida ushbu maqola "Kompyuterra" jurnalida rus tilida chop etilgan. Tim O'Reilly maqolada Web 1.0 va Web 2.0 ni taqqoslaydi va batafsil tahlil qiladi, shuningdek, Web 2.0 ga shunday ta'rif beradi: "*Web 2.0 – bu tizimlarni loyihalash metodikasi bo'lib, tarmoqdagi o'zaro faoliyatni hisobga olgan holda, qancha foydalanuvchilar ko'paysa, shuncha takomillashib boraveradi*".

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'atida ta'rif berilishicha<sup>5</sup>, **Web 2.0** ( ingl: Web 2.0, rus: Web 2.0) WWW rivojlanishining ikkinchi avlodini

<sup>4</sup> <http://uztelecom.uz.press> Пресс-конференция о состоянии развития сетей телекоммуникаций Узбекистана. 31. 01. 2013.

<sup>5</sup> Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли лугати, БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси, Тошкент, 2010 й., 51-бет

belgilovchi atama. Web 2.0 ning asosiy xususiyati – ko’p sondagi foydalanuvchilarning kontentni yaratish va ma’lumotlarni almashishda bevosita ishtirokidir. Misollar: ijtimoiy tarmoqlar, videoxosting saytlari, viki, bloglar, folksonomiY.



Arxitektura ham inqilobi o’zgartirildi. Yangi tarmoqda barcha dasturlar Web 2.0 saytlari va portallari serverlarida joylashadi, ularga murojaat uchun uchun faqat Web-interfeys (brauzer) zarur. Ta’kidlash joizki, Web 2.0 Internetning oldingi avlodi bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ular birgalikda bir butunni tashkil etishadi.

Web 2.0 Internet evolyusiyasida mantiqiy qadam bo’ldi. 1960-yillarda fayllar arxivlari paydo bo’ldi. 1990-yillar boshida – axborot to’rlari paydo bo’ldi. 1990-yillar oxirida ilg’or kommunikatsion xizmatlar (ICQ, elektron pochta, forumlar, e’lon taxtalari, yangiliklar guruhlari) paydo bo’ldi. 2005 yilda boshlab, “Web 2.0 ” tushunchasiga mos keluvchi, kontentni shakllantirishda foydalanuvchilar faol jalb etilishi asosidagi xizmatlar vujudga kelmoqda.

Foydalanuvchilar orasida eng mashhur Web 2.0 texnologiyalari YouTube, Vikipediya, bloglar va ijtimoiy tarmoqlardir. “Yangi” Internetning asosiy xususiyati – uning ijtimoiyligi bo’lib ko’zga tashlanmoqda.

Web 1.0 da Web-saytlar ularning egalari tomonidan yaratilgan bo’lib, foydalanuvchilar hech qanday yo’l bilan uning mazmuniga ta’sir ko’rsatolmasdan, saytga tashrif buyurib, kerakli kontentni yuklab olishlari mumkin edi. Web 1.0 foydalanuvchisi – sayt kontenti iste’molchisi, sayt faqatgina axborot manbai edi. Web 2.0 da kontentni foydalanuvchilarning o’zlari yaratib, o’zgartirib, ko’plab dasturlardan o’z kompyuteringizga yuklamasdan to’g’ridan-to’g’ri Web 2.0 saytlarida foydalanish imkonи paydo bo’ldi.

Internet taraqqiyotining zamonaviy bosqichi Web 2.0 texnologiyalarining rivoji bilan belgilanadi. Jumladan, YouTube, Vikipidiya, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar Web 2.0 ga xos bo’lgan ancha mashhur texnologiyalardir.

Web 1.0 ning birinchi avlodi 1990 yillarning boshida, WWW ishlab chiqilgan paytda, 2005 yilda butun jahon o'rgimchak to'rining ikkinchi avlodi – Web 2.0 yoki Cloud Computing paydo bo'la boshlagan. 2005 yil 30 sentabrdra "O'Reilly Media" kompaniyasining prezidenti Tim O'Reilly muomalaga Web 2.0 terminini kiritgan holda, "Web 2.0 nima?: dasturiy ta'minotning keyingi avlodi uchun sxemalar, dizaynlar va biznes modellar" nomli maqolasi e'lon qilingan. 2005 yil oktabrda "Kompyuterra" jurnalida shu maqola rus tilida nashr qilingan.

Tim O'Reilly Web 1.0 va Web 2.0 ning qiyosi va chuqur tahlilini o'tkazishga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, u quyidagi izohni keltiradi: "Web 2.0 - tizimlarni loyihalash metodikasi bo'lib, tarmoqlararo munosabatlarni hisobga olish yo'li bilan aniqlanishicha qancha ko'p odam undan foydalansa, u shuncha takomillashib, tobora yaxshilanib boradi".<sup>6</sup>

Yangi tarmoq avvalgi davrlardagi gigant hisoblash mashinalarnikiga o'xhash tuzilishga ega bo'lib, barcha dasturlar Web 2.0 portali saytlarining serverlariga joylashtiriladi, ularga kirish uchun esa foydalanuvchilarga faqat web interfeys (brauzer) kerak bo'ladi.

Web 2.0 avvalgi avlod Internetning ajralmas bir qismi bo'lib, u bilan bir butunni tashkil etadi. Qolaversa, Web 2.0 Internet taraqqiyotining mantiqiy poydevoriga aylandi. 1960 yillarda fayllarning arxivlari paydo bo'ldi. 1990 yillarning boshlarida axborotli o'rgimchak to'ri yuzaga keldi. 1990 yillarning oxirlari esa ICQ, elektron pochta, forumlar, e'lonlar doskasi, yangiliklar guruhi kabi kengaytirilgan muloqot (kommunikatsiya) servislarining paydo bo'lishi bilan mashhur bo'ldi. 2005 yildan boshlab Web 2.0 tushunchasiga mos ravishda kontent shakllanishida foydalanuvchilarning faol ishtirokiga asoslangan servislar paydo bo'ldi. Web 1.0 ning o'ziga xosligi shundaki, saytlarning kontenti o'z sohiblari tomonidan yaratilgan, foydalanuvchilar esa hech qanday ta'sir o'tkazmagan holda saytlarga kirib, kerakli kontentlarni ko'chirib olishgan. Web 1.0 foydalanuvchisi – kontent iste'molchisi, sayt esa – axborot manbai. O'sha paytdayoq, axborot tashuvchilarda yoki saytlardan ma'lumot ko'chirishda dasturiy ta'minot ustunlikka ega bo'ldi. Web 2.0 ning yaratilishi oqibatida foydalanuvchilarning o'zлари kontent yaratishadi yoki o'zgartirishadi. Ko'plab dasturlarga kirish, egalik qilish imkoniyati foydalanuvchilar tomonidan shaxsiy kompyuterga o'rnatish yoki ko'chirib olish zaruratisiz, bevosita Web 2.0 saytning o'zida mavjud bo'la boshladи. Web 2.0 sayti shunday bir maydon, fazoki, unda foydalanuvchilar o'z faolligini namoyon qilishadi. Uni kontentlar kolleksiyasi deb atab bo'lmaydi, chunki kontent hamisha o'zgarib, yangilanib turadi.

Web 2.0 saytlarining asosiy jihatи, qiyofasi funksionallikdan iborat bo'lган dizaynga ega. Negaki, qoidaga muvofiq, sayt dizayni o'z ijodkorlari, ishlab chiqaruvchilarining falsafasini ifodalaydi, aks ettiradi. Web 2.0 saytlari axborotni

<sup>6</sup> О'Reйли Т. Что такое Веб 2.0 // Компьютерра Online/ 18 октября 2005 года. <http://www.computerra.ru/think/234100/>.



foydanuvchilarga tez va samarali yetkazishga mo’ljallab bezatilgan. Sayt yaratuvchilari berilgan uslubni minimalizm sifatida baholaydilar. Minimalizm rangli bezaklarda ham kuzatiladi.

Web 2.0 saytlarining aksariyati oddiy ranglar gammasi, xususan oq-qora bo’lishi bilan xarakterlanadi. Odatda ortiqcha buramalarsiz, dumaloq shriftlar yetakchilik qiladi. Matn tekislanadi, uning atrofida esa oq yoki fon rangida yetarli kattalikda bo’sh joy qoldiriladi. Zaruriy hollarda ingichka chiziqlar kiritiladi, dizayn aniq, sarlavhalar yirik, fon oq yoki och rangda bo’ladi. Shunday qilib, dizayn foydanuvchilar uchun qulay bo’lgan sodda web yaratish imkonini beradi.

Web 2.0 interfeys. Bularning barchasi ularning yuzabiliti (xalqaro standartlarga ko’ra ISO 9241-11, yuzabiliti (inglizcha-usability) – mahsulotning ma’lum bir kontekst sharoitida ma’lum bir foydanuvchi tomonidan ma’lum bir maqsadga yetishish uchun yuqori samaradorlik sifat va mamnuniyat bilan ishlatish bochqichi)ni oshiradi<sup>7</sup>.

Texnologik jihatdan Web 2.0 yangiliklar sindikatsiyasi (RSS), web-servislar (API) va ular asosi aralash servislar, shuningdek asinxron JavaScript va XMLdan foydalanish bilan xarakterlanadi<sup>8</sup>.

Sanab o’tilgan texnologiyalar Web 2.0 saytlarining funksionalligini, qo’llanishdagi oddiyligini va foydanuvchiga nisbatan bezararligin ta’minlaydi; sahifalar foydanuvchining har bir harakatidan keyin to’liq qayta yuklanmaydi; dasturlardan parallel ravishda foydalanish mumkin; bir manbaning o’zidan cheksiz ko’p saytlarda foydalanish, uni kuzatish mumkin.

Web 2.0 ning barcha formatlaridagi hamma materiallar yaratuvchilari tomonidan belgilab qoyiladigan maxsus belgilar – “teg”larga ega. Birinchidan, belgilar yangi tasnifni folksonomiyanı hosil qiladi. Ikkinchidan, yangi tasnif boshdan oxirigacha noiyerarxik (nopog’onaviy) resurslardan iborat bo’lib, qidiruvning yangi imkoniyatlari, ya’ni turli tuman axborotlar oqimidan keraklisini, avval o’xhashi uchramaganini topishni osonlashtiradi.

Yangi avlod Internetining barcha texnik qulayliklariga qaramasdan, Web 2.0 dagi barcha saytlarning to’liq pereoriyentatsiyasiga to’sqinlik qiluvchi qator kamchiliklar mavjud. Bular 2.0 saytlarining doimiy bog’lanishga yuqori darajada, bevosita bog’liqligi va zamonaviy infrastrukturaning bevosita brauzerning o’zida katta hajmdagi hisoblashlarni bajarishga bo’lgan sust moslashuvchanlikdir. Foydalanuvchi uchun esa bunday saytlar shaxsiy axborot va ma’lumotlarning oshkoraliq xavfini yuzaga keltiradi.

Web 2.0 servislari xususiyatlarining o’zaro o’xhash va umumiyligiga qaramasdan alohida olinganda ularning har biridan ta’limda aniq bir maqsadlarda

<sup>7</sup> Международный стандарт ISO DIS 9241-11: Эргономические требования к офисной работе виртуальными средствами. Часть 1/IT-GOST.RU Международные стандарты. -http://it-gost.ru/content/view/18/44/.

<sup>8</sup> Мэтьюз М., Д. Кронан. Динамическое web – программирование -М.: Эксмо, 2010. - 63 с.

foydalaniladi. Eng avvalo, bular – zakladkalar ijtimoiy xizmati, polimediya fayllarining birgalikda saqlanishi (masalan YouTube), viki-viki texnologiyalari, aloqa va munosabatlar diagrammalari, loyihaviy faoliyat uchun dasturiy ta'minotlarni taklif qiluvchi saytlar, podkastlar va boshqalar.

## **2. Web 2.0/3.0 texnologiyalarining bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida tutgan o'rni.**

Jamiyat axborotlashuvining mazkur bosqichida AKTning axborotlarni qabul qilish va tasavvur qilish usullarining o'zgarishiga ta'siri, muloqotning yangi ko'rinishlarining paydo bo'lishi, shaxsning savodlilik, kasbiy kompitensiya borasidagi yangicha tasavvurlari hamda nomutaxassislar tomonidan kundalik hayotda Web-texnologiyalardan foydalanishlari to'g'risida fikr yuritish o'rinli.

Ta'limning axborotlashuvi axborotli jamiyatga o'tish bilan bog'liq bo'lган global jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Ta'limning axborotlashuvi ancha vaqtidan beri davom etmoqda, biroq o'tgan asr 90-yillarining oxiridan boshlab u Internet tarqalishi hisobiga keskin taraqqiy etdi.

Ta'lim tizimida Web-texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim texnologiyalarining amalga oshirilishiga, Web 2.0/3.0 hizmatlaridan foydalangan holda elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish uchun informatsion ko'mak va elektron ta'limning yangi shakllarining paydo bo'lishiga, masofaviy ta'lim texnologiyalarining keng spektrining yuzaga kelishiga, zamonaviy o'qituvchi kasbiy faoliyatining asosiy qismiga aylanishiga zamin yaratadi.

Ta'limda Web 2.0 saytlaridan foydalanishning innovatsion xususiyati resurslarni hamkorlikda yaratish va ulardan foydalanishdir.

Mazkur o'ziga xoslik ta'lim tizimida Internetdan, xususan, Web 2.0 texnologiyalardan foydalanishning didaktik tamoyillarini o'zgartiradi.

Web 2.0 texnologiyasi paydo bo'lgunga qadar internet va internet texnologiyalaridan ta'lim tizimida asosan ta'limning individual shakllarida foydalanilgan. Muloqotning jamoaviy shakllari mavjud bo'lган bo'lsada, mazkur texnologiya bilan bog'liq faoliyat yakka tartibdaligicha qolaverган.

Web 2.0 texnologiyalarining hamkorlikda yaratilishi va foydalanilishi ta'limda jamiyatlararo amalga oshiriluvchi jamoaviy ta'lim shakllari va metodlarini joriy etishga turtki bo'ladi.

## Web-texnologiyalarning ta’limda qo‘llanilishi:

ta’lim sifatining yaxshilanishi;

turli ta’lim shakllari, usullari va vositalarining ko‘payishi;

elektron ta’limning yangi shakllarini paydo bo‘lishi;

ta’lim xizmatlarining nisbatan kengroq joriy etilishi;

masofaviy ta’limning rivojlanishi kabilar bilan bog‘laydi.

Informatikani o’qitishda Web-texnologiyalardan foydalanish borasidagi bugungi holatining tahliliga ko‘ra quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Oliy ta’limda informatika kursini tahlil qilish natijasida Web-texnologiyalardan foydalanishning quyidagi yo’nalishlari aniqlandi: *o’quv masalalarining yangicha axboriy ifodalanishidan foydalanish; o’qitish jarayonini takomillashtirish, uning sifati va samaradorligini oshirish; kompyuterli va axboriy modellashtirish, o’quv jarayoni va vositalarini boshqarish; ma’lumotlar va axborotlarni yig’ish hamda hisoblash eksperimentlari natijalarini qayta ishslash jarayonlarini avtomatlashtirish; hisoblash eksperimentlari natijalarini vizuallashtirish; ta’lim jarayoni ishtirokchilarining jamoaviy loiyhaviy faoliyatini tashkil etish.*

2. Informatikani o’qitishda tarmoq ta’limiy resurslari asosida quyidagi metodik omillarni amalga oshirish imkonini beruvchi Web-texnologiyalardan foydalanish: *tizimlarning axboriy o’zaro munosabatlari sharoitida obektlar, jarayonlar va bog’likliklar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish; turli tipdagi axboriy masalalarni yechish imkoniyatlari bilan ta’minlash; axboriy xodisalarning vizuallashtirish vositalari yordamida real jarayonidagi oqimining qonuniyatlarini tahlil qilish; individual ta’limiy trayektoriyalarni qurish imkoniyatlari; axboriy xodisalarni o’rganish jarayonida matematik ifodalar va modellarni qurish, interpretatsiyalash va foydalanish boyicha bilimlarni shakllantirish; axborot texnologiyalari yordamida o’rganiluvchi obekt va jarayonlarning grafik tasvirlarni hamda axboriy modelini yaratish va ularni qayta ishslash; hisoblash tajribalarini o’tkazish, tahlil qilish va natijalarni interpretatsiya qilish va h.k.*

3. Informatikani o’qitish jarayonida Web-texnologiyalardan foydalanish *adaptivlik, ta’limiy axborotlarni vizuallash va ko’rgazmalilik, interfaollik, teskari aloqa* kabi didaktik tamoyillarni amalga oshirish imkonini beradi.

Jamiyat o’zgarishining muhim omillaridan biri bo’lgan global Internet tarmog’i ta’lim sohasiga, jumladan ta’lim vositalarini tanlashga katta ta’sir ko’rsatmoqda.

Internet ta'sirida ta'limni axborotlashtirish jarayoni doirasida yangi yo'naliish – *ta'limni internetlashtirish* vujudga keldi. U o'zida o'quv jarayoniga global Internet tarmog'i servislarini ta'lim oluvchilar bilish faoliyatini boshqarish vositalari hamda ta'lim uchun mazmuniy resurslar manbalari sifatida tadbiq qilishni ifodalaydi.

Web-texnologiyalar birinchi navbatda, butunjahon o'rgimchak to'ri asosi bo'lgan gipertekstni tushunadi, chunki axborotni taqdim etishning gipermatnli shakli telekommunikatsiyalarning yangi axborot manbalaridan foydalanish va yangi turdag'i o'quv faoliyatini tashkil etish rejasidagi didaktik imkoniyatlarini bir necha bor oshirishini ta'kidlagan.

S.A.Borodachev tomonidan pedagogik oliy ta'lim muassasalari elektron ta'lim maydonining kommunikativ xususiyatlari asosida bo'lajak informatika o'qituvchilari uchun kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish metodikasi hamda elektron ta'lim tizimi dasturini ishlab chiqqan. Olim dissertatsiya ishida pedagogika oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida elektron o'qitishning "birga-bir", "birga-ko'p" va "ko'pga-ko'p" darajalardagi pedagogik hamkorlikni amalga oshirishga imkon beradigan kommunikatsiya vositalarini tanlashni asoslab bergan.

WikiWiki, Moodle, ochiq sinf ta'lim platformasi, tarmoq kundaliklari, raqamli ta'lim resurslari kabi ta'limni tashkil etish vositalarini informatika o'qituvchisining tarmoq madaniyatini shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish vositasi hisoblanadi.

Shunday qilib, Internet texnologiyalari yordamida informatika o'qituvchilarini tayyorlashda ta'limni internetlashtirishning butunjahon o'rgimchak to'ri resurslaridan foydalanish, masofaviy ta'lim tizimini qo'llash, Web-texnologiyalarni tadbiq qilish kabi yo'naliishlarini ajratish mumkin.

*Web-texnologiya* deb yuritiluvchi keng imkoniyatlarga ega bo'lgan resurslarning yaratilishi o'qituvchilarining, ayniqsa bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy faoliyati mazmuni va mohiyatini tubdan o'zgarishiga asos bo'ladi. Web-texnologiyalarga asosan pedagogik faoliyatni loyihalash nafaqat ijodiy, balki keng qamrovli mazmunga ega bo'lmoqda. Shu sababli talabalarni o'qitishda mazmun, usul va shakllarni ifodalovchi didaktik "Nimani o'qitish kerak?" va "Qanday o'qitish kerak?" degan savollarning yangi sifati shakllanadi. Agar Web-texnologiyani ta'limiy texnologiya deb qarasak, uning interfaollik va kreativlik; ijtimoiylik va ochiqlik; ko'p funksiyalilik va sinxronlilik kabi asosiy didaktik omillarini keltirish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini Web-texnologiyalar hamda kompyuter tarmoqlari asosida tashkil etish islohotlarni rivojlantirishning istiqbolli yo'naliishlardan biri sanaladi. Internet tarmog'ida ko'plab on-layn va off-layn rejimida ishlaydigan ilg'or tajribaga asoslangan tabaqalashtirilgan masalalar bilan boyitilgan kontent (topshiriqlar, ko'rsatmalar, o'rgatuvchi didaktik materiallar va hokazo)lar ishlab chiqilmoqda. Bunday kontentlardan samarali foydalana olishlari, ularning

didaktik imkoniyatlarini ko'ra olishlari uchun avvalombor Web-texnologiyalar asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish asosida talabalarning Web-texnologiyalarni qo'llash kompetentligini shakllantirish lozim.

Web-texnologiyalar asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash tizimini takomillashtirish muammosining dolzarbligini quyidagi omillar bilan belgilash mumkin[83]:

*Motivatsion omil.* Web 2.0/3.0 texnologiyalarning ta'lim jarayonida tatbiq etilishi talabalarning individual ta'limiy imkoniyatlari va extiyojlarini maksimal darajada inobatga olish; mashg'ulotlarining mazmun, shakl, usul va darajalarini tanlash imkoniyatlari mavjud; talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish; Web 2.0/3.0 texnologiyalar va ulardan foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish imoniyatlari mavjud bo'lgan shart – sharoitlarning yaratilishi natijasida bo'lajak informatika o'qituvchilarida fanga bo'lgan qiziqishni orttirish hamda ijobiy motivatsiyalarni shakllantirish imkonini beradi;

*Tarkibiy omil.* Web 2.0/3.0 texnologiyalar imkoniyatlaridan o'quv kursi bo'limlari va alohida mavzulariga oid interfaol jadval, plakat kabi raqamlı tarmoq ta'lim resurslarini yaratishda; on-layn kompyuter testlarini yaratishda; interfaol uy vazifalari hamda mustaqil ishslash trenajyorlarni yaratishda foydalanish mumkin;

*O'quv – metodik omil.* tarmoq ta'lim resurslaridan ta'lim jarayonida o'quv – metodik ta'minot sifatida ham foydalanish mumkin;

*Tashkiliy omil.* Ta'limning turli shakllarida har bir talabani individual dastur asosida tuzilgan individual reja boyicha o'qitishda; frontal va kichik guruhlar bilan ishslashda Web 2.0/3.0 texnologiyalardan foydalanish mumkin;

*Ta'lim natijalarini baholash omili.* Ta'lim natijalarini joriy, oraliq va yakuniy baholashlar orqali aniqlashda asosiy vosita sifatida test va test topshiriqlari Web 2.0/3.0 texnologiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Web 2.0/3.0 texnologiyalar ning bo‘lajak inforatika o‘qituvchilari faoliyati mazmuniga ta’sirining quyidagi asosiy omillarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Web 2.0/3.0 texnologiyalarning “Informatika o‘qitish metodikasi” kursi mazmuniga kirishi munosabati bilan bo‘lajak informatika o‘qituvchilari OTMdA Web 2.0/3.0 texnologiyalar sohasida yetarlicha ilmiy, metodik va maxsus bilimlarni egallashi;

bugungi kunda bir qator ta’limiy, metodik va ma’lumotli saytlarning yaratilganligi va o‘quv jarayoniga joriy etilayotganligi tufayli bo‘lajak informatika o‘qituvchilari o‘z kasbiy faoliyatlarida ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

kunduzgi va masofali ta’lim rivojining zamonaviy tendensiyalari bo‘lajak informatika o‘qituvchilari oldiga o‘zining (shaxsiy) Web 2.0/3.0 texnologiyalariga asoslangan tarmoq ta’lim resurslarini yaratish usul va vositalariga oid malakalarga ega bo‘lishi.

Web-texnologiyalarning informatikani o‘qitishda qo’llash bilan bog’liq bir qator afzallliklari mavjud:

- muntazam yangilanib, boyitib turiluvchi elektron axborot resurslar;
- ma’lumotlarga ulanishning hudud va vaqtga dahlsizligi hamda ma’lumotlarni almashishdagi cheksiz imkoniyatlar;
- yer sharining istalgan nuqtasida ta’lim jarayoni ishtirokchilari bilan muloqot qilish imkoniyati;
- kommunikatsiya malakalarining rivojlantirilishi;
- Viki-sayt yoki hujjat (matnli, jadvalli, prezentatsiya, kalendar (taqvim)) kontentlarining hamkorlikdagi tahlili;
- o‘quv jamoasining veb-sayt, blog yoki ijtimoiy tamoqdagisi faoliyatini axborot-kommunikativ jihatdan qo’llab-quvvatlash;
- multimedia resurslari (video, foto, audio, prezentatsiya) almashinushi;
- butunjahon o‘rgimchak to‘ri resurslari bilan ishslash (topshiriqlarni elektron pochta yoki bulutli texnologiyalar orqali jo‘natish, maxsus sayt va portallarni o‘rganish, forum va chatlar yordamida muloqot qilish);
- internent orqali aralash va masofaviy ta’limni qo’llab-quvvatlash uchun ta’limni boshqarish tizimini tadbiq qilish;
- Web 2.0 xizmatlaridan foydalanish (bloglar, Wiki, onlayn ilovalar asosida interfaol ta’lim muhitini yaratish).



Web-texnologiyalar asosida bo'lajak informatika o'qituvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun yuqorida sanab o'tilgan omillar asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining o'z kasbiy faoliyatlarida Web-texnologiyalarning yuqorida keltirilgan imkoniyatlaridan foydalana olishga doir bilimlarni egallash muammosi qoyiladi. Mazkur muammoni hal qilish uchun pedagogika OTMning umumkasbiy fanlar, jumladan "Informatika o'qitish metodikasi" kursi mazmuniga Web-texnologiyalarning kiritish tavsiya etiladi.

### Nazorat savollar:

1. Web-texnologiyalar daeganda nimani tushunasiz?
2. Web 1.0 va Web 2.0 ni taqqoslab bering.
3. Ta'lim tizimida Web-texnologiyalarning qo'llanilishi qay ahvolda?
4. Web-texnologiyalarning ta'limda qo'llanilishiga doir qarashlariningiz.
5. Informatikani o'qitishda Web-texnologiyalardan foydalanishning bugungi holatini izohlang.
6. Web-texnologiyalar asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash tizimini takomillashtirishni qanday omillar bilan belgilash mumkin?

### Adabiyotlar va internet resurslar:

1. Раицкая Л.К.. Дидактические основы применения технологий Веб 2.0. в высшем профессиональном обучении // Вестник университета (Государственный университет управления). – 2010. – № 21. – С.99-101.
2. Хайтуллаева Н. Web 2.0. технологияси ва унинг дидактик имкониятлари. // Халқ таълими. – Т.: 2013. № 5. – Б.116-119.
3. Calacanis D. Web 3.0, the «official» definition. [Электрон манба]. <http://calacanis.com/2007/10/03/web-3-0-the-official-definition>
4. O'Reilly T. What Is Web 2.0 // Design Patterns and Business Models for the Next Generation of Software by Tim O'Reilly 09/30/2005. [Электрон манба]. <http://oreilly.com/web2/archive/what-is-web-20.html>
5. O'Reilly T. Today's Web 3.0 Nonsense Blogstorm. [Электрон манба]. <http://radar.oreilly.com/archives/2007/10/web-30-semantic-web-web-20.html>

## 2-MA’RUZA. BULUTLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI. (4 SOAT)

Reja:

1. Bulutli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari.
2. Tarmoq ta’lim resurslari va internet-zakladkalarini saqlashda Web 2.0/3.0 texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.

### **1. Bulutli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari**

**Bulutli texnologiyalar** - bu model Iste’molchi ga ATni servis sifatida internet orqali namoyon qiladi. Bulutli xisoblashlarning yuzaga kelishida «virtualizatsiya» texnologiyalarining axamiyati juda katta hisoblanadi. Birinchi bo’lib 1960 yilda virtualizatsiya texnologiyalari IBM taklif qilingan ammo qimmat meynfreym kompyuter texnologiyalarini arzon x86 protsesorli kompyuter serverlariga o’tgandan so’ng virtualizatsiya termini ancha vaqtgacha esdan chiqarildi. 2000 yildan boshlanib holat o’zgara boshladi, shu yillarga qadar WMware x86 razryadli virtualizatsiyada monopoliyani qo’lga kiritdi. 2005 yilda WMware kompaniyasi virtual mashinalarni DTdan foydalangan xolda bepul tadbiq qildi. 2006 yilda Microsoft kompaniyasi «Microsoft virtual PC» Windows versiyasini ishga tushirildi. 2006 yilda Amazon kompaniyasi o’z qurilmalarida virtual serverlarni kengaytirish orqali «Amazon Elastic Compute Cloud» yuzaga keldi buning yana asosiy sabablaridan biri virtual serverlarni boshqa qurilmalarga (Iste’molchi larga) ijaraga berish orqali bulutli texnologiyalarni kelib chiqishiga turki bo’ldi.

Bulut - AT- infratuzilma tashkilotlarining innovatsion modeli (konsepsiya) xisoblanib, u aloxida ajratilgan va taqsimlangan konfiguratsiyalangan apparat va tarmoq resurslaridan, dasturiy taminotdan tashkil topgan va ular masofadagi provayderlarni ma’lumotlar markazida yotadi.

Bulutli xisoblash - model yagona puldag‘i tarmoqdan qulay va bir vaqtning o’zida konfiguratsiyalangan xisoblash resurslaridan birgalikda foydalanish imkoniyatini yaratadi (misol uchun, tarmoqlar, serverlar, ma’lumotlar bazasi, ilovalar va servislар) shu bilan birga minimal boshqarishda xam operativ va erkin ishslash imkoniyatini taqdim etadi. Bulutning bu modeli 5 ta asosiy xarakteristika, 3 ta servis model va 4 ta taqdimlash modellaridan iborat.

#### **Bulutli texnologiyalarning asosiy xarakteristikalari:**

1. **Talab boyicha o’z o’ziga xizmat ko’rsatish.** Foydalanuvchi server vaqtini, ma’lumotlar saqlash ombori xajmini, zarur bo’lganda avtomatik tarizda, xizmat ko’rsatayotgan provayder bilan o’zaro bog’liq bo’lmagan holda, xisoblash kuchini mustaqil tarzda aniqlash va o’zgartirish mumkin.
2. **Tarmoqdan keng holda foydalana olish.** Hisoblash kuchi imkoniyatlari tarmoqda standart mexanizmlar orqali katta masofada foydalana olish mumkin. Har -



xil turdag'i (yupqa - qalin) mijoz platformasidan (terminal qurilmalar) keng qamrovda foydalanish imkonini beradi.

**3. Resurslarni birlashtirish.** Konfiguratsiyalangan provayder xisoblash resurslarini yagona xovuzga birlashtirish orqali ko'p sonli foydalanuvchilar resurslardan birgalikda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**4. Resurslarni tezkor elastikligi.** Foydalanuvchilarning talabiga qarab bulut xizmatlari kengayishi, tez taqdim etilishi, qisqartirilishi mumkin.

**5. O'lchanigan servis.** (aslida foydalanilgan bugalteriya istemol servisi va to'lov xizmatlarini imkoniyatlari). Bulutli tizimlar servis turiga qarab abstraksiyaning bazi bir darajalarida o'lhashni amalga oshirish orqali resurslardan foydalanishni optimallashtiradi va ular ustidan avtomatik nazorat qiladi.

### ***Bulutli texnologiyalarning servis modellari va taqdimlash modellari.***

*Servis modellari va asosiy yetkazib beruvchi provayderlar.* Software as a Service (SaaS) - xizmat sifatida dasturiy taminot. Iste'molchi ushbu modeldan provayder tomonidan bulutli infratuzilmasida ishga tushurilgan ilovadan foydalanadi. Interfeys (veb-brouzer) yoki dastur interfeysi orqali mijoz foydalana olishi mumkin. Iste'molchi bulutli infratuzilma asosini boshqarish va nazorat qilish xuquqiga ega, shu jumladan: tarmoqni, serverni, operatsion tizimni, ma'lumotlar bazasini xatto ilovalar parameterlarini o'zgartirish imkoniyati berilmagan.

Platform as a Service (PaaS) - xizmat sifatida platforma. Bulutli xisoblash Iste'molchi ga dasturiy platformadan foydalanish uchun ruhsat berilgan model xisoblanadi, bunda quydag'i imkoniyatlardan foydala oladi: operatsion tizim, ma'lumotlar bazasi, prikladnoy DT, ishlab chiqish vositalari va DT sinovi. Iste'molchi uchun, kompyuter platformasiga o'rnatilgan operatsion tizim, web - ilovalarni ishlab chiqish, tarqatish va boshqarish uchun maxsus vositalar ijaraga beriladi. Iste'molchi bulut infratuzilma asosini boshqarish xuquqiga ega emas, shu jumladan: tarmoq, serverlar, operatsion tizimlar yoki ma'lumotlar bazasini xam. Lekin tarqatilgan ilovalar va ish olib borayotgan muhit konfiguratsiya parametrlarni sozlash imkoniyati mavjud.

Infrastructure as a Service (IaaS) - xizmat sifatida infrastruktura. Iste'molchi ushbu bulutli xisoblash modelida ishlov berish vositalarini boshqarish va saqlash, fundamental hisoblash resurslari (virtual serverlar va tarmoq infrastrukturalar) nazorat qilish xuquqiga ega. Bunda iste'molchi o'zining xohishiga ko'ra operatsion tizimlar va dasturlarni mustaqil tarizda o'rnatish mumkin. Shunda iste'molchi abstrakt xisoblash kuchi (server vaqtি, disk maydoni va tarmoq kanallarni o'tkazish qobiliyati) yoki autsorsing IT- infrastrukturalardan foydalanish mumkin. Iste'molchi bulut infrasutukturasi asosini boshqarmaydi, lekin operatsion tizim, saqlanayotgan va tarqalgan ilovalarni boshqarish imkoniyatiga ega.

Bulutli ma'lumotlar markazi yoki ma'lumotlarga ishlov berish markazida (SOD) quyidagilar joylashtirilgan bo'ladi: fizik uzkunalar yoki hardware (serverlar,



ma'lumotlar saqlash bazasi, ish stansiyalar), tizimli dasturiy taminot (OC, virtualizatsiya vositasi, avtomatizatsiya) instrumental va prikladnoy DT, uskunalarni boshqarish tizimi (Equipment management systems), tarmoq infratuzilmasi (Network infrastructure): marshutizator va kommutatorlar (routers and switches) fizik uskunalarni ularash va birlashtirish uchun. Shu jumladan tizim muxandisi taminoti ma'lumotlar markazi ishini normal taminlaydi (Systems of engineering support).

### **Tarqatish modellari:**

**Private cloud** (*xususiy bulut*) - bu infratuzilma bulutli hisoblashni tadbiq etishda yagona tashkilot doirasida foydalaniadi.

**Community cloud** (jamoaviy bulut) - bu infratuzilmada bulutli hisoblashdan faqatgina tashkilotning alohida bir jamoasi, (bo'lim) foydalanishi mumkin.

**Public cloud** (ommaviy bulut) - bu infratuzilma bulutli hisoblash xizmatlaridan keng omma foydalanish imkoniyatiga ega.

### *Bulutli texnologiyalarning afzalliklari:*

- Iste'molchilar kompyuterlardan ishlash kuchi xarakteristikalariga qaramaydi. Kompyuterlar yuqori kuchda ishlashi uchun, katta xotira va ko'p xajimli disklarga ega bo'lgan bo'lishlari shart emas. Chunki barcha ma'lumotlar va hamma dasturlar bulut serverlarida saqlanadi. Katta xajimga ega bo'lgan shaxsiy statsionar kompyuterlar, noutbuklar, netbuklar, orqali iste'molchilar bulutga kirishlari mumkin.

- Iste'molchilar uchun kompyuterlarni ishlash sifati oshdi. Iste'molchilar kompyuter dasturlar, fayllarni masofadan turib ishga tushirishda kam yukli qilishlari uchun kam ilovalardan foydalanishlari kerak. Misol uchun, **Panda Cloud Antivirus** - antivirus dasturi, vebervis sifatida foydalana olish mumkin. Panda Cloud Antivirus kuchli server ma'lumotlaridagi viruslarni masofadan turib skanerlash imkonи beradi. Bu dasturni iste'molchi kompyuterida ishga tushirish ishlash yuki ikki barobar ko'payardi.

- IT infratuzilmadan foydalanish samaraforligi oshadi va chiqimlar soni kamayadi. Agar kompaniya uchun server o'rtacha yuklanish boholashini oladigan bo'lsak u 13% ni tashkil etadi. Bazi hollarda kompaniya o'zining qo'shimcha resurslari kuchini ishlatishga to'g'ri keladi, lekin bazi hollarda hisoblash resurslari bo'sh turadi va ishlatilinmaydi. Bunda esa albatta pulning sarifi bekor bo'ladi. Agar kompaniya hisoblash resurslaridan masofadigi bulut serverlaridan foydalansa, bu xolda kompaniya sarflari soni ikki marta kamayadi. Bundan kelib chiqqan xolda nobarqaror iqtisodiy ishlab chiqarish moslashuvchanligi oshib boradi. O'zining ma'lumotlari bosha bir tashkilotlarda saqlashiga ishonchlilik qobiliyat yo'qolganda kompaniyaning o'zi shaxsiy bulut yaratib, virtualizatsiya infratuzilmalarini barcha imkoniyatlaridan to'la qonchiligicha foydalansa bo'ladi.

- Xizmat ko'rsatishdagi va DT ni sotib olishdagi xarajatlarni kamaytirish. Bulut hisoblash texnologiyalarini shaxsiy serverlarda qo'llanilishi kompaniya ko'lamida

kichik hisoblanib, shuning uchun ularga xizmat ko'rsatish onson bo'ladi. Katta sonli fizik serverlardan voz kechish orqali DT ni sotib olishdagi muammolar kamayadi. Servis va ilovalar bulut ichida bo'lganligi uchun iste'molchilar DT sotib olishlari shart bo'lmaydi.

- Hisoblash kuchi o'sishi. Shaxsiy kompyuterlar bilan bulutli hisoblash resurslarini solishtirganda, bulutli hisoblash resurslari katta imkoniyatlarga ega. Bulutli hisoblash kechi uning serverlari soni bilan o'lchanadi. Iste'molchiga superkompyuterdan masofadan turib foydalanish imkoniyatini yaratib beradi, bu albatta oddiy shaxsiy kompyuterda masalalarni yechish imkoniyati bo'limganda.

- Ma'lumotlar saqlashdagi cheklanilmagan xajimlar. Ma'lumotlarni saqlash xajmiga qarab bulutli texnologiyalar qulay va avtomatik tarzda (iste'molchi hohish istagiga qarab) joylashtiradi. Oddiy shaxsiy kompyuter iste'molchisi ma'lumotlarini saqlashga joy yetmaganda, bunday xolat bulutli hisoblash istemochilarida yuzaga kelib chiqmaydi.

- Operatsion tizim bilan mos kelishi. Bulutli texnologiyalar iste'molchilarda qanday operatsion tizim turganligiga qaramaydi. Microsoft Windows operatsion tizimidan foydalanilayotgan mijoz, Unix mijozlari bilan muammosiz ma'lumotlarni almashishi mumkin. Servislardan foydalanishda esa har bir operatsion tizim brauzerga qarab standartlashtiradi.

- Xujjat formatlari bilan mos kelishi. Shaxsiy kompyuterdagи fayl Microsoft Word 2007 dasturi asosida bajarilgan bo'lsa, eski versiyalarida yani Microsoft Word 2003 da ochish imkoniyati mavjud emas. Bulutli hisoblashlarda esa to'gri kelmagan xujjatlarni ochish muammosi kelib chiqmaydi.

- Iste'molchilarning bir gurux bo'lib ishlashidagi qulayliklari. Bulutli hisoblash tizimlarida bir vaqtning o'zida bir necha iste'molchilar ish olib borishlari mumkin. Xujjatlarni bir kompyuterdan boshqasiga ko'chirib o'tkazish kerak bo'lmaydi. Xujjatlarni taxrirlash tez aks etadi, bundan tashqari iste'molchilar xujjatning yangilash imkoniyati mavjud.

- Bulutli hisoblashlarda fayllardan erkin foydalanish imkoniyati mavjudligi. Agar ma'lumotlar bulutda saqlanilayotgan bo'lsa, bu ma'lumotlardan istalgan vaqtda iste'molchilar foydalanishlari mumkin faqatgina Internet tarmog'i mavjud bo'lгandagina. Iste'molchilar uchun keng qamrovdagи qurulmalardan internetga kirish orqali foydalanishlari mumkin. Bulut mijoji shaxsiy kompyuter, planshet, netbook, smartfon, notebooklardan foydalanishlari mumkin.

- Tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytirish. Bulutli hisoblash texnologiyalarida hisoblash kuchlarini tejash nafaqat elektroenergiya boyicha balki fizik maydon va tabiiy resurslarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Ma'lumotlarga ishlov berish markazi (SOD) malum bo'lgan salqin xududlarda ham saqlash imkoniyati

bor. Ma'lumotlardan foydalana oladigan qurilmalar xozirda juda ixcham hisoblanib, ishlab chiqarishda kamroq materiallar ketadi.

- Ma'lumotlarni yoqolishiga bardoshligi. Bulutda saqlanilayotgan ma'lumotlar, o'zlarining nuxxalarini bir necha serverlarga joylashtiradi. Shuning uchun bulutda saqlanilayotgan ma'lumotlarni yoqolishi extimoli juda ham kam albatta buni iste'molchining shaxsiy kopyuteri bilan solishtirganda.

*Bulutli texnologiyalarning kamchiliklari:*

- Doimiy Internet tarmog'i bilan aloqada bo'lishi lozim. Bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanishda har vaqt tarmoq Internetga ulangan bo'lishi lozim. Bundan tashqari bir necha ilovalar mavjud bo'lib, ular kompyuterlarga yuklanadi va ulardan uzoq muddatgacha ishlash imkoniyati bo'ladi. Boshqa holatlarda esa har doimgidek oddiy hisoblanib, ulanish bo'lmasa ish ham bo'lmaydi. Ko'pchilikning fikricha bu bulutli hisoblashlarning eng katta kamchiligi deb yurutishadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishini hisobga olgan xolda shuni aytishimiz mumkunki Interner tarmog'i xozirgi kunda xar bir joyda mavjud. Shuning uchun bu muammoli qarashlar tez vaqtlar ichida umuman e'tiborda chiqadi.

- Ishlash tezligi sekinligi. Ko'pgina bulutli servislar to'la qonligicha ishslashlari uchun normal Internet - ulanishni talab qiladi. Bu muammoni kelib chiqishini oldini olishda choralar ko'rilyapti va bu muammo tez kunlarda judlik bilan to'g'irlanishiga ishonch yuqori darajada.

- Dasturlarni sekin ishlashi va to'liq funksional imkoniyatlarga ega bo'lмаган xolda. Bir necha dasturlar bulutli tizimlarda sekin ishslashlari mumkin lokal kompyuter tizimiga qaraganda. Bu uzoq masofadagi serverlarni yuklash qiyinchiliklari tufayli yuzaga kelishi mumkin.

- Ma'lumotlar xavfsizligiga xavf borligi. Iste'molchilar tomonidan bulut texnologiyalariga qoyilgan xar bir ma'lumot xavfsizligi xavf ostida bo'lishi mumkin. Lekin bunda birinchi masala provayderga iste'molchining ishonish muxim o'rinda turadi. Agar bulutli texnologiyalar provayderi ma'lumotlar almashishini ishonchli shifrlasa, zaxira nusxalasa va bulutli texnologiyalar soxasi bozorida o'ziga yarasha tajribaga ega bo'lsa bu holda xavfsizlik borasida muammolar tug'ilmaydi. Fakt sifatida shuni aytish mumkinki bulutda yo'qolgan ma'lumotlarni qaytarish mumkin emas.

Hozirgi kunda nafaqat kompyuter texnologiyalari, balki mobil texnologiyalar ham jadal rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan nisbatan katta hajmdagi axborotni xavfsiz saqlash masalasi o'ta dolzarb bo'ldi. Va shu maqsadda ko'plab IT korporatsiyalari har qanday turdag'i qurilma foydalanuvchilari uchun "bulutli xizmat" deb nomlangan dasturni taklif qiladi. Bulutdan va har qanday ishlab chiquvchilar bazasida joylashgan xizmatlardan qanday foydalanish kerakligi quyida ko'rib chiqiladi.

**Bulutli saqlash** - bu maxsus bag'ishlangan fayl formatida disk maydoni. Boshqacha aytganda, Bulutli texnologiyalarni ma'lum ma'noda ma'lum bir hajmda joylashtirilgan virtual flesh-disk deb atash mumkin.

Bu kabi omborlarni ishlatishdan oldin, xizmat ko'rsatuvchi provayderni aniqlash kerak, ya'ni eng maqbul xizmatni tanlash kerak. Bugungi kunda bunday xizmatlarni juda ko'p topish mumkin. Eng mashhurlari quyidagilardir:

- Dropbox.
- SkyDrive.
- Cloud Mail.Ru.
- Yandex.Disk.
- Google Drive (Google Disk).
- Apple iCloud va iCloud Drive.
- OneDrive va boshqalar.

Har qanday bulutni qanday ishlatishni tushunishdan avval, ushbu xizmatlarning bir-birlari bilan taqqoslanadigan bo'lsa, bu xizmatlarning birmuncha teng emasligini ta'kidlash kerak. Aslida, bitta omborga kirish faqat kompyuter terminali orqali, boshqalari ham kompyuterlar va mobil qurilmalar sinxronizatsiya qilishni qabul qilishlari mumkin. Ba'zida sizga qo'llaniladigan qo'llanma, ba'zida esa faqat Internet-brauzer vazifasini bajaradigan maxsus dasturga ehtiyoj sezilishi mumkin.

Xuddi shu narsa, fayllarni saqlash uchun bo'sh disk maydoni, shuningdek, uzoq serverda qo'shimcha ovoz uchun ham amal qiladi. Nima bo'lganda ham, xizmatlarning aksariyati juda o'xshash.

### **Bulut xizmatlaridan foydalanish.**

Eng avvalo, oldindan ro'yxatga olish va ba'zi holatlarda oddiy brauzer yoki maxsus kompyuter yoki mobil ilovadan foydalanib, Internet orqali amalga oshirilmaydi. Bu butun jarayoni bir necha daqiqa davom etadi.

Ruxsat etilgan tizimlardan foydalanishga qulay bo'lgan operatsion tizimlar o'rnatilgan turli xil mobil qurilmalar mavjud. Haqiqatan ham birinchi navbatda AppStore yoki ba'zi bir ilg'or funksiyalarga kirish uchun ochilganda Google Play (Play Market) tizimi dastlab hisobni yaratishni taklif qiladi (ro'yxatdan o'tgan manzili elektron pochta va parol). Shu bilan birga, smartfon yoki planshetda ham bulutli xizmatlar bilan ishslash uchun oldindan o'rnatilgan dastur mavjud. Qulaylik uchun ularning statsionar analoglarini kompyuter yoki noutbukga o'rnatishingiz mumkin (garchi brauzer orqali kirishingiz mumkin bo'lsa ham).

### *Ajratilgan disk maydoni*

Yana bir muhim nuqta - foydalanuvchining dastlab bepul versiyada olgan disk maydoni. Odatda, turli xil xizmatlarning hajmi 5 gigabaytdan 50 Gigacha farq qiladi. Agar bu etarli bo'lmasa, saqlash hajmini oshirib, muayyan miqdordagi pulni to'lashingiz kerak bo'ladi, bu ma'lum miqdordagi hajmni sotib olish va ma'lum



foydalanish muddati uchun xizmat ko'rsatish xarajatlarini o'z ichiga oladi, bu esa, shuningdek, boshqacha bo'lishi mumkin.

### *Umumiy tamoyillar*

Bulutni keng ma'noda qanday ishlatalishni bilish uchun bu yerda hamma narsa oson. Ro'yxatga olgandan so'ng, foydalanuvchi faqatgina papka va fayllarni, kontaktlarni va yana ko'p narsalarni do'konga qo'shishlari kerak.

Sozlamalar bo'limida, u bilan birga, fayllarni yuklashni boshlash yoki ularni tahrirlashni boshlaydigan do'stlarni qo'shishlari mumkin (eng oddiy misol Dropbox). Ko'pincha, yangi foydalanuvchilar tizimga kirish uchun o'z parollarini ishlatalishlari mumkin.

Lekin bu qiziq. Kompyuterda maxsus dastur o'rnatilganda, bulutdagi fayllarga kirish bir xil Internet-brauzerni ishlatalishingizdan ko'ra tezroq. Sinxronizatsiya haqida aynan shu haqida aytish mumkin. Fayllarni dastur papkasida qoyish kifoya va sinxronizatsiya xizmatga kirish huquqiga ega bo'lgan barcha foydalanuvchilar uchun darhol amalga oshiriladi. Eng ommabop omborlarni ko'rib chiqing.

### *Cloud Mail.Ru*

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilganidek, birinchi navbatda siz elektron pochta qutisi yaratishingiz kerak, shundan keyin asboblar panelidagi loyihalar oynasining yuqori qismida bulut xizmatini ko'rasiz.



Dastlab, 25 GB disk maydoni taklif etiladi. Fayllarni yuklab olish bir vaqtning o'zida bir nechta obektni qo'shishingiz mumkin bo'lgan tegishli tugma yordamida amalga oshiriladi. Cheklash faqat yuklab olingan faylning o'lchamiga nisbatan qo'llaniladi - 2 Gb dan oshmasligi kerak. Yuklab olishni boshlashdan oldin, qo'shimcha funksiyalardan foydalanishingiz mumkin, masalan, fayllarni yaratish va o'chirish kabi osonlik bilan yaratishingiz mumkin. Shuni yodda tuting: Shu xizmatga "Yandex" hech "Recycle Bin" bor, shuning uchun ishlamaydi deleted ma'lumot olish uchun.

Fayllarni yaratish, ko'rish yoki tahrir qilish foydali bo'lishi mumkin. Keling, Word hujjatimiz (yoki to'g'ridan-to'g'ri omborda yaratilgan) haqida gapiraylik. Uni to'g'ridan-to'g'ri bulutda o'zgartirishi mumkin, foydalanuvchi





kompyuterdagи muхarriridan foydalanishga o'xshaydi. Ish tugagandan so'ng, biz o'zgarishlarni saqlaymiz, undan so'ng sinxronlash jarayoni qayta boshlanadi.

### *Yandex-bulut.*


"Yandex" xizmati bilan, asosan, narsalar deyarli bir xil. Funksional vosita, umuman, juda boshqacha emas.



Biroq, bu xizmatni ishlab chiquvchilar foydalanuvchi fayllarni to'liq tasodifan o'chirishi mumkin deb oylashdi. Bu olib tashlash uchun qaysi axborot ichiga atalmish "savati" keladi, deb. U standart kompyuter xizmati kabi ishlaydi. To'g'ri, ular ma'lumotlar qutqarish vositalariga, agar ular Qayta ishlab chiqarish qutisidan olib tashlangan bo'lsa qo'llanilmaydi. Shunga qaramay, funksiya juda foydali.

### *Google Drive xotirasi*

Keling, "Google" deb nomlangan yana bir qudratli xizmatga o'tamiz - bulut. Google Diskdan qanday foydalansam bo'ladi? Boshqa xizmatlarga nisbatan asosiy farqlar yo'q. Lekin bu erda mobil qurilmadan (o'rnatilgan xizmat) va kompyuterda o'rnatiladigan yordam dasturidan (Internet brauzerini kiritish haqida emas) foydalanishingiz mumkin. Telefon yoki planshet bilan hamma narsa oddiy, kompyuter dasturiga nazar tashlaylik.



Hisob allaqachon yaratilgan deb hisoblaymiz. U aktivlashtirilgandan so'ng, foydalanuvchi 5 GB ni omborga oladi. 25 Gbga ko'paytirish 2,5 AQSH dollari qiymatiga teng bo'ladi. Ilovani kompyuterga o'rnatib, so'ngra Ish stolida Service papkasi paydo bo'ladi (u shuningdek Explorerda ko'rsatiladi).

Ko'rib turganingizdek, fayllarni ushbu katalogga qoyish, sinxronizatsiya qanday amalga oshirilishi kerak. Ishlayotganda, dastur "tizim" laganda bir belgi sifatida



"osadi". Fayllarni yuklab olish, moslashtirilgan sozlashlarni qilish, xotirani kengaytirish, ishni bajarish va hk.

Ayniqsa, bir narsani ta'kidlash lozim. Ma'lum bo'lishicha, fayllarni kompyuterdag'i dastur papkasiga nusxalash va ularni bulutdan mobil qurilmaga yuklab olish gadgetni kompyuterga ulashdan ancha tezroq va Windows yordamida nusxalash.

### *ICloud va iCloud Drive xizmatlari*

Nihoyat, Apple bulutidan qanday foydalanishni ko'rib chiqaylik. Ikkita xizmat (iCloud va iCloud Drive) mavjud, ular iPhone yoki iPad-da versiyaga mos ravishda oldindan o'rnatilgan operatsion tizim, qurilmaga o'rnatilgan. iCloud Drive iCloudning yangilangan versiyasi bo'lib, uning to'g'ri ishlashi uchun trekka mobil qurilmaning belgilangan texnik talablarga javob berishini hisobga olish kerak: iOS 8 qurilmaning o'zi. Kompyuter - Windows 7 va undan yuqori versiyalari uchun iCloud for Windows kengaytmasi yoki Mac OS X 10.10 yoki OS X Yosemite bilan kompyuter terminali.



Dastlab, xizmatga kirganingizdan so'ng, u yerda ko'rsatuv papkalar ko'rsatiladi. Ularning soni kompyuter va mijozning uyali qurilmadagi sozlamalariga qarab farq qilishi mumkin. iPhone'dagi bulutni qanday ishlatish kerak? Aslida bu yerda g'ayritabiyy narsa yo'q. Gadgetdag'i dasturni ishga tushiring (boshlang'ich slayderni ochiq holatga o'tkazing) va tizimga kiring hisob qaydnomasi. Yana bir narsa, agar kirish kompyuterdan kerak bo'lsa. Bu yerda dasturning sozlash menyusidan foydalaning va u yerga qo'shilishni tanlashingiz kerak. Yana bir minus yetarli past tezlik Sinxronizatsiya (bu hamma tomonidan tan olingan). Va yana bir, eng yoqimsiz payt. Agar iCloud-dan iCloud Drive-ga ixtiyoriy konfiguratsiyaga barcha qurilmalarni yangilamasdan o'tish qilsangiz, sobiq bulutdagi ma'lumotlar oddiygina bo'lomaydi, shuning uchun hushyor bo'lish zarur.

***Google Drive uchun bulutli saqlash*** sizning hujjatlarining bilan ishlaydigan har qanday dasturni o'zgartiradi, 15 Gbaytgacha bo'lgan USB-flesh, katta fayllarni uzatish muammosini hal qiladi. Sizning hujjatlarining yoki fayllaringizni qayerda saqlaganingizni esga olishingiz shart emas: uyda, ofisda yoki telefonda - ular doimo



yoningizda bo'ladi, siz faqat Internetga ulanishingiz kerak va hamkorlik qilish uchun boshqa foydalanuvchilarga ruxsat berishingiz mumkin.

## Google Drive (Google Disk)ning xususiyatlari.

Google Drive har qanday fayllarni saqlash uchun 15 GB gacha bo'sh joyni taqdim etadi. Agar bu yetarli bo'lmasa, haq to'lashi uchun virtual diskning hajmi 1 Terabaytga qadar kengaytirilishi mumkin. Agar xohlasangiz, boshqa foydalanuvchilarga bulutdagi xotirada saqlangan ba'zi fayllarga kira olishingiz va kirish darajasini ko'rsatishingiz mumkin - ular faylni tahrir qilishi yoki faqatgina ko'rib chiqish mumkin.


Bundan tashqari, fayllarni to'g'ridan-to'g'ri brauzer oynasida ochishingiz mumkin. Google Drive PDF, PSD, RAR, DOC, AVI, FLV va boshqalar kabi ko'plab keng tarqalgan fayl formatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Fayl xususiyatlarini saqlab qolish uchun faylni saqlash xizmatiga kirganingizda ushbu funksiya ayniqsa foydalidir.

Bundan tashqari, Google Diskda tiklash xususiyati mavjud. Xizmat oxirgi 30 kun ichida fayllarga kiritilgan barcha o'zgarishlarni saqlaydi va agar kerak bo'lsa, faylni avvalgi versiyalarga qaytarishingiz mumkin.

Xizmatning qo'shimcha funksiyalari orasida boshqa foydalanuvchilar bilan birgalikda hujjatlar bilan ishslash va kengaytirilgan qidiruv funksiyasi mavjud. Hujjat boyicha birgalikdagi ish vaqtida siz boshqa foydalanuvchilarga hujjat oynasida to'g'ridan-to'g'ri xabarlar to'g'ri kelishi mumkin. Google Drive-da rivojlangan qidirish skaner qilingan hujjatlarda ham qidirishni o'z ichiga oladi.

## Google Diskdan qanday foydalanish kerak?

Google Drive bulutli saqlash xizmatidan foydalanishni boshlash uchun oldin Google+ bilan hisob yaratishingiz lozim. Hisobingiz bor bo'lsa, darhol Google Drive-ga borib, tugmani bosing, Uni sinab ko'ring.



O'rnatish tarqatilishini kompyuteringizga yuklab oling va dasturni o'rnating. Keyin, sizning ma'lumotlaringizni kriting: elektron manzil pochta qutisi va parolni kriting. Google Diskni sozlashda sinxronlash uchun jildning manzilini tanlashingiz mumkin. Buning uchun tugmani bosing **Murakkab sozlamalar** va oynaning yuqori qismida sizning papkangizning joylashishini aniqlang.

O'rnatish va sozlashdan so'ng, papkani sinxronlash boshlanadi. So'ng Google Drive belgisi vazifa panelida paydo bo'lishi kerak. Ushbu belgini bosish orqali Google Disk papkasini ochishingiz mumkin mahalliy kompyuter yoki Internetda, bulutli saqlash uchun joyni kengaytirishi, Google Drive-ni yopish yoki dastur uchun ba'zi

sozlashlarni bajarish. Google Drive papkasida saqlash Barcha fayllar avtomatik ravishda Google Cloud Storage nusxalanadi va siz istalgan internet bor har qanday qurilma, ularni kirishingiz mumkin. Google Drive Onlineda sahifasida, yangi hujjat, taqdimot, yoki stol yaratishingiz mumkin - u MS Office o'xshash bir interfeys bilan maxsus muharriri bor. Boshqa foydalanuvchilarga ma'lum bir faylga kirishni ta'minlash uchun ustiga o'ng tugmasini bosing, ni tanlang kontekst menyusi modda **Almashish** va kirish darajasini sozlash. Keyin havolani nusxalash va faylga ruxsat berishni istagan kishilarga yuborish mumkin.

Ma'lumki, bulutli texnologiyalar qator didaktik funksiyalarga ega:

1. Axborot berish funksiyasi (ommaviy axborot vositasi; elektron kutubxona; axborotli ma'lumot manbai);
2. Kommunikativ (muloqot) funksiya (kundalik muloqot; kasbiy muloqot);
3. Iqtisodiy funksiya (maxsulot va xizmatlarning, jumladan, Internet xizmatlarining savdosi; moliya-bank hisob-kitoblari va operatsiyalari);
4. Ta'lim berish va o'rgatish funksiyasi (masofaviy ta'lim; mustaqil ta'lim va mustaqil faoliyat; malaka oshirish);
5. Ijtimoiy funksiya (muloqot-ijtimoiylashuv jarayonining bir bo'lagi sifatida; ijtimoiy tarmoqlar va loyihamalar);
6. Boshqarish funksiyasi (elektron hokimiyat; kompaniya va tashkilotlar boshqaruvi; ta'lim tizimidagi boshqaruv);
7. Psixologik funksiyasi (shaxs rivojlanishi uchun tajriba maydoni; internet bilan bog'liq faoliyat natijasida shaxs o'zlik ko'rsatkichining o'zgarishi (motivatsiyalar, "men" konsepsiysi tuzilishida, qadriyatlarni anglashdagi o'zgarishlar); internet addiksilar – xulq atvor fenomenologiyasi spetsifikatsiyasi (tarmog'i); Internet – muloqot (kommunikatsiya) an'anaviy ijtimoiy amaliyotning yangi vositasi sifatida);
8. Ko'ngilochar funksiya (oyinlar; video-, audio-, multimedia; internet-jamoalarda muloqot).

Qizig'i shundaki, sanab o'tilgan funksiyalar bir-birining mantiqiy davomi bo'lib, qisman bir-birini takrorlaydi. Masalan, ijtimoiy funksiya mazmunida muloqot, axborot, boshqaruv, ta'lim va o'rgatish, ko'ngilochar funksiyalarning elementlari mavjud. Ta'lim berish, o'rgatish funksiyasi axborot funksiyasi, xususan, uning axborot, ma'lumot manbai funksiyasi bilan qisman mos keladi. Shuningdek, mazmunan ko'ngilochar va ijtimoiy funksiyalarning elementlarini ham ifodalaydi. Masofaviy ta'lim shaklida ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirish uchun uni tashkil etishda Internetni kasbiy muloqot vositasi sifatida jalb qilishni taqozo etadi.

## **2. Tarmoq ta'lim resurslari va internet-zakladkalarini saqlashda Web 2.0/3.0 texnologiyalaridan foydalanish.**

Jahonda ijtimoiy servislarning roli tobora o'sib bormoqda. Nyu-york sayti [www.emarketer.com](http://www.emarketer.com) ning tadqiq qilishicha, 2012 yildayoq "g'arb" olamidagi 5ta

